SHARQ ALLOMALARI MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH

Kamolova Shirinoy Usarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Ziyotova Fotima G'ayrat qizi
Xitoy tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Received: 29.10.2026
Revised: 30.10.2026
Accepted: 31.10.2026

Kalit so'zlar: Sharq allomalari, ma'naviy meros, kasbga yo'naltirish, o'quvchilar, kasbiy qiziqish, kasb tanlash, mehnat tarbiyasi, pedagogik yondashuv, milliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya.

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkirlarning ilm olish, mehnatsevarlik, hunar egallash va kasbiy mahoratga oid qarashlarining yosh avlodda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Sharq allomalarining ma'naviy merosini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarda mehnatga hurmat, kasb tanlashga ongli yondashuv va mas'uliyat hissini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda sharq allomalarining ma'naviy merosidan foydalanishning pedagogik asoslari masalalar ham keng yoritilgan.

Keywords: Eastern scholars, spiritual heritage, vocational guidance, students, vocational interest, career selection, labor education, pedagogical approach, national values, education and upbringing.

Аннотация: В статье анализируется роль взглядов великих мыслителей на получение знаний, усердие, овладение ремеслом и профессиональные навыки в формировании профессиональных интересов у молодого поколения. Уделяется внимание вопросам развития уважения к труду, осознанного подхода к выбору профессии и чувства ответственности у студентов при применении духовного наследия восточных ученых в образовательном процессе. Также подробно рассматриваются педагогические основы использования духовного наследия восточных ученых в профессиональной ориентации студентов.

Ключевые слова: восточные ученые, духовное наследие, профессиональная ориентация, студенты, профессиональные

Abstract: This article analyzes the role of the views held by great thinkers—concerning the pursuit of knowledge, diligence, the acquisition of a craft, and professional mastery—in shaping vocational interests among the younger generation. It focuses on fostering respect for

интересы, выбор профессии, трудовое воспитание, педагогический подход, национальные ценности, образование.

labor, a conscious approach to career selection, and a sense of responsibility in students by integrating the spiritual heritage of Eastern scholars into the educational process. The pedagogical foundations for utilizing the spiritual heritage of Eastern scholars in the vocational guidance of students are also explored in detail.

Bugungi kunda kasblar olamining tobora kengayib borishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi hamda mehnat bozoridagi talablarning o‘zgarishi o‘quvchi-yoshlar oldida kasb tanlash masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Shu bois kasb tanlash nafaqat alohida shaxsning kelajagi, balki jamiyat taraqqiyoti va mamlakat iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy masala sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni har daqiqada ularning yurish-turishiga, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”.[1]

Mamlakatimizda o‘quvchilar o‘zlaridagi mavjud qobiliyatidan kelib chiqib kasb tanlashlarida albatta ota-ona , o‘qituvchi hamda maktab psixologlarining ham ahamiyati katta.

Xususan, prezidentimiz 2020-Yil Farg‘onaga tashrifi chog‘ida Xalq ta’limi vazirligiga allohida ko‘rsatmalar berdi.Prezident yoshlarni ish bilan ta’minlash ,ularni kasb-hunarga yo‘naltirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tib, yangi o‘quv yilidan 7-sinfdan boshlab o‘quvchilarni kasb – hunarga yo‘naltirish lozimligini ta’kidlab o‘tdilar.[2] Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga o’quvchilarning kasb-hunarni o’zlarining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil va erkin tanlashning ilmiy amaliy tizimi sifatida qarash lozim. Ma‘lumki, o’quvchi kasb–hunarga tanlashda o’z imkoniyatlarini tasavvur qila olish va baholay olish ko’nikmasiga, har xil kasblarning imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lishi kerak. Bu borada yurtimiz rahbari tomonidan yana qator qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda qadimdanoq sharq allomalarimiz o‘z asarlarida kasb –hunar haqida o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan,Abu Nasr Farobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Farobiyning fikricha , inson- “ ojiz banda” emas , balki eng oliy kamolot bo‘lib “Aql –idrok ziyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir” .[3] Yana shunday allomalarimizdan biri so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘z davrida yoshlarga murojaat qilib, Quyoshliq istasang, kasbi kamol et, deb yozganlar. Yoshlarimizni

[1]Mirziyoyev.SH.M. Vatanimiztaqdirivakelajagiyo’lidayanadahamjihatbo’lib , qatiyatbilanharakatqilaylik// “Xalqso’zi” gazetasi, 2017-yil,16-iyun

[2]X.M.Yo’ldosheva “Maktab o’quvchilarini kasbga yo’naltirishning ayrim jihatlari haqida” SCIENTIFIC jurnalidagi maqolasi 408-bet

[3]M. Xayrullayev. Farobiy. T.85-bet

tarbiyalash ularga kasb-hunar o‘rgatish uchun birinchi galda, sharq mutafakkirlarining duru-gavhariga teng ma'naviy meroslari misol bo‘la oladi.J Avesto, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan ’’Qobusnoma’’, Abu Nasr Forobiyning ’’Baxt-saodatga erishuv’’ , ’’Fozil odamlar sharhi’’asarlari, hind faylasufi Beydabo (Bedpoy) tomonidan yozilgan “Kalila va Dimna”, Al-Xorazmiyning “O‘gitlar”i, Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya» asari, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu-lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Pahlavon Mahmudning “Ruboiy”lari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan to‘plangan “Hadislar”, Lutfiyning “Gul va Navro‘z”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub-ul-qulub”asarlarida, Aruz Samarqandiyning “Nodir hikoyatlar”i, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va boshqa ko‘plab adabiy, tarixiy, madaniy-ma‘rifiy meroslari namunalarini misol keltirish mumkin.[4] Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo‘lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o‘rgata borish, kattalar mehnatini ezozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o‘rgatish oilaning diqqat markazida bo‘lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta‘lim bilan birga hunar o‘rgatishga bog‘lab davom ettirish lozimligini alohida ta‘kidlagan. Ulug‘ mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchkovlik bilan o‘rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan.[5] O‘z-o‘zidan ravshanki, serqirra faoliyat murakkab mehnatni, chuqur bilimni talab qilish barobarida hunarmand ustalar orasida ixtirochilikning keng tarqalishiga zamin yaratgan. Sohibqiron Amir Temur o‘z saltanatida yirik mehnat taqsimoti negizida mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqqan hunarmandchilik – to‘qimachilik, yog‘och va tosh o‘ymakorligi, gilam to‘qish, sopol, metall buyumlar tayyorlash kabi sohalarni yanada rivojlantirishga hamda dehqonchilik, chorvachilik va savdoga katta ahamiyat qaratgan. SHu sababli ijtimoiy hayotda yangidan-yangi kasb-hunarlarning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratilgan, ommaviy ishsizlikka yo‘l ko‘yilmagan.

O‘zining ta’lim –tarbiya, axloq, nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o‘qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalar bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning o‘qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e’tibor berganligini ko‘ramiz. U o‘qituvchini talabalarga kuchli ta’sir etuvchi deb biladi. Uning ta’kidlashicha , o‘qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo‘lishi g‘oyatda zararlidir, chunki ular o‘zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlod o‘rtasida tarqatadilar. Demak , Ahmad Donish o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor beradi.

U o‘qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchi va talabalarga ko‘p bilim berish o‘z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o‘z ustilarida ko‘p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan

[4]A.I.Avazboyev,Y.U.Ismadiyorov “Kasbiy pedagogika”T.2014.45-b
[5]K.Hashimov,S.Nishonova Pedagogika tarixi T-2005 .89-B

ko‘rinadiki, Ahmad Donish o‘qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo‘yadi. U go‘zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o‘qituvchining go‘zal sifati deb biladi.

Chindan ham insonlarga quyoshdek beminnat nur sochishni, kamolotga intilgan inson turli kasb va ilmlarni o‘zlashtirishi lozim. Shulardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kasb-hunarga yo’naltirish ishlarining samaradorligi, bitiruvchilarni keyingi ta‘lim bosqichiga o’zlarining imkoniyatlari va istaklari bilan o’tishlari borasida xali yechimini topmagan muammo va kamchiliklar mavjud. Masalan, maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisiga hozirda har bir o’quvchida mustaqil kasb tanlashga ijobiy munosabatni, qiziqish hamda ehtiyojni shakllantirish birmuncha qiyin kechmoqda.

Umumta’lim maktablari o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirish muammolari kasb-hunar ta‘limi, takomillashtirilishi bilan bog‘liq ravishda doimiy o’rganilgan va ma‘lum darajada olimlarimiz tomonidan ishlari olib borilgan. Maktab o’quvchilarining kasb tanlash va ularni kasbga yo’naltirish masalalari bo’yicha ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, individual xususiyatlari va kelajakdagi kasbiy intilishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda ta’lim muassasalarida olib boriladigan mashg‘ulotlar bilan bir qatorda, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar, kasb egalari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar hamda turli kasbiy-amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyatlar o‘quvchilarning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish va ongli kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonining samaradorligini ta’minlashda turli pedagogik shakl, metod va vositalardan foydalanish muhimdir.

Birinchidan, kasbga yo‘naltirishning tashkiliy shakllari suhbatlar, anketa va test so‘rovlari, davra suhbatlari, konferensiyalar, seminarlar, munozaralar, treninglar, ko‘rgazmalar, ekskursiyalar, tanlovlar va kasb egalari bilan uchrashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu shakllar o‘quvchilarning kasblar haqidagi bilimlarini boyitish, o‘z qiziqishlarini anglash va kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, kasbga yo‘naltirish metodlari sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, hikoya qilish, tushuntirish, ko‘rgazmali namoyish, amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, “Aqliy hujum”, “Klaster” va “Qaror qabul qilish” kabi interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kasblarni taqqoslash, muayyan kasbning o‘ziga xos jihatlarini anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, kasbga yo‘naltirish vositalari o‘quv adabiyotlari, metodik qo‘llanmalar, kasblar haqidagi ma’lumotlar, madaniy-ma’naviy meros namunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia materiallari va ilg‘or pedagogik tajribalarni qamrab oladi. Ayniqsa, Sharq allomalarining ilm, mehnat, hunar, kasbiy mahorat va axloqiy kamolot haqidagi qarashlaridan foydalanish

o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, halollik va kasbga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

Bunda o‘quvchilarning kasb tanlashiga faqat zamonaviy kasblarning ommalashuvi yoki moddiy manfaat nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Aksincha, ularning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, sog‘lig‘i, psixologik xususiyatlari va jamiyat ehtiyojlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish muhimdir. Kasbiy maslahat jarayonida pedagoglar, psixologlar, zarur hollarda tibbiyot mutaxassislari va ota-onalarning hamkorligi o‘quvchiga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash hamda asosli kasbiy qaror qabul qilishda yordam beradi.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Kasblar haqida ma’lumot berish va kasbiy tayyorgarlik. O‘quvchilarga turli kasblarning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan talablar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqida tizimli ma’lumot berish.

2. Kasbiy maslahat va ongli kasb tanlash. O‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini aniqlash orqali ularga mos kasbiy yo‘nalishlarni tanlashda ko‘maklashish.

3. Kasbiy moslashuv va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy sinovlar, ustoz-shogird an’analari va mutaxassislar bilan hamkorlik orqali o‘quvchilarda tanlangan kasbga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.

Kasbga layoqatlilikni baholashda ham kompleks yondashuv talab etiladi. Bunda o‘quvchining sog‘lig‘i va kasbga oid tibbiy talablar, bilim va ko‘nikmalari, psixologik xususiyatlari hamda individual imkoniyatlari hisobga olinadi. Bunday baholash o‘quvchining imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlash va unga mos kasbiy yo‘nalishni tanlashga yordam beradi. Shu bilan birga, kasbiy maslahat o‘quvchining tanlov erkinligini hurmat qilishi, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi va kelajakdagi kasbiy imkoniyatlarini cheklamasligi lozim.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga oid metodikaning mohiyati, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yakuni va natijalari ilmiy asoslangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, sharq allomalari asarlardagi kasb tanlash , kasbga yo‘naltirish borasidagi fikrlarini o‘rganish , ularni amaliy hayotga tadbiq etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o‘rgatish jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi . Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha , tasavvur va bilimlar boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1.Mirziyoyev.SH.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo’lida yanada hamjihat bo’lib , qatiyat bilan harakat qilaylik// “Xalqso’zi” gazetasi, 2017-yil,16-iyun

2.X.M.Yo’ldosheva “Maktab o’quvchilarini kasbga yo’naltirishning ayrim jihatlari haqida” SCIENTIFIC jurnalidagi maqolasi 408-bet

3.M. Xayrullayev. Farobiy. T.85-bet

4.A.I.Avazboyev,Y.U.Ismadiyorov “Kasbiy pedagogika”T.2014.45-b

5.K.Hashimov,S.Nishonova Pedagogika tarixi T-2005 .89-B